



Egamberdiyeva Nodira Melibayevna,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, professor,*



Madjidova Dildora Abduxamidovna,
*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim*

OILADAGI ZO'RAVONLIK: YUZAGA KELISH SABABLARI VA OQIBATLARI TAHLILI

Annotsatsiya. Ushbu maqolada oiladagi zo'ravonlik masalalari muhokama qilingan. Bu borada qabul qilingan qator qonun va qarorlar hamda ilmiy o'rganishlarga asoslangan tavsiyalar va xulosalar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы домашнего насилия. Представлены законы и решения, принятые в этой связи, а также рекомендации и выводы, основанные на научных исследованиях.

Annotation. Problems of domestic violence are discussed in this article. Laws and decisions adopted in this regard are presented, as well as recommendations and conclusions based on scientific research.

Kalit so'zlar: oila, zo'ravonlik, iqtisodiy, jismoniy, madaniy, jinsiy, psixologik bosim.

Ключевые слова: семья, насилие, экономическое, физическое, культурное, половое, психологическое давление.

Keywords: family, violence, economic, physical, cultural, sexual, psychological pressure.

Kirish. Oila jamiyatning mustahkam asosi bo‘lib, unda shaxs birlamchi ijtimoiylashuvga ega bo‘ladi, kelgusida jamiyatda yashash va faoliyat yuritish uchun asosiy ijtimoiy me‘yorlarni o‘zlashtiradi, turli xil madaniy va iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. Aynan shuning uchun jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, shuningdek, siyosiy aspektlari bevosita oilalar farovonligi hamda barqarorligiga bog‘liq. Oilaviy zo‘ravonlik kabi ijtimoiy muammoning yuzaga kelishi va keng tarqalishi ishsizlik darajasining oshishiga, jinoyatchilikning ortishi, uysizlar (oiladagi zo‘ravonlikdan qutilish maqsadida najot izlab uylarini tark etganlar) sonining ko‘payishiga olib keladi.

Maqsad va uni asoslash. Mamlakatimizda zo‘ravonlikning oldini olish, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash yuzasidan tub islohotlar amalga oshirilmoqda hamda bir qator qonunlar va qarorlar qabul qilinib, kuchga kirmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi 561-sonli hamda 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 562-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oida chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4235-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi “Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo‘lgan, kam ta‘minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 285-sonli, 2019-yil 20-noyabrdagi “Xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 919-sonli hamda 2020-yil 4-yanvardagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4-son qarorlari shular jumlasidandir.

Qadim-qadimdan ayollarni kamsitish evaziga erkaklarning ustunligini namoyon qilish oddiy hol sifatida qabul qilingan. Hatto erkak tomonidan ayolning jazolanishi qonunan mustahkamlab qo‘yilgan. Lekin XX asrning 70-yillariga kelib, oiladagi zo‘ravonlik masalasi muhokama va e‘tirozlarga sabab bo‘la boshlagan. Shunda ham gap faqat jismoniy zo‘ravonlik xususida borgan. Milliy xususiyatlarimizga ko‘ra, oiladagi holatni ommaga oshkor qilish uyatli hisoblanib, shu nuqtayi nazardan ham oilada bolalarga “uydagi gapni ko‘chaga tashima”, deya tarbiya

Mamlakatimizda zo‘ravonlikning oldini olish, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash yuzasidan tub islohotlar amalga oshirilmoqda hamda bir qator qonunlar va qarorlar qabul qilinib, kuchga kirmoqda.

Bu borada tadqiqot olib borgan olimlarning qarashlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, rossiyalik olim Ye.P. Agapovning fikriga ko'ra, "oiladagi zo'ravonlik yoki uydagi zo'ravonlik – bu oila a'zolarini jismoniy va/ yoki majburlash, shaxsiy erkinligini chegaralash kabi aktlarni sodir etish tahdidini kiritgan holda psixologik zarar yetkazish va azoblashdir.

berishgan. Agar qizlar oila qurganidan keyin qandaydir muammo tug'lsa, "sen ayolsan, chida, chiqqan qiz chig'iriqdan tashqarida bo'ladi", deya ularni taqdiriga ko'nishga, salomatligini yo'qotish evaziga chidashga chorlangan. Xo'sh, texnologiyalar asri hisoblanmish bugungi kunda-chi?! Qachonki rivojlanish uchun barcha sharoitlar yaratilsa, o'z bilimi, malakasi va ko'nikmalarini yuksaltirish imkoni bo'lgan bugungi kunda ham oiladagi zo'ravonlikka chidash kerakmi?! Maqolamiz XXI asrning nihoyatda dolzarb mavzusi – oiladagi zo'ravonlik tahliliga bag'ishlangan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Oiladagi zo'ravonlik – bu o'z yaqinlariga nisbatan hukmronlik va nazoratni qo'lga kiritish uchun jismoniy, jinsiy, og'zaki, psixologik hamda iqtisodiy haqorat, shuningdek, bosim siklining tezligini oshirish bilan takrorlanuvchi zo'ravonlikdir.

Bu borada tadqiqot olib borgan olimlarning qarashlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, rossiyalik olim Ye.P. Agapovning fikriga ko'ra, "oiladagi zo'ravonlik yoki uydagi zo'ravonlik – bu oila a'zolarini jismoniy va/yoki majburlash, shaxsiy erkinligini chegaralash kabi aktlarni sodir etish tahdidini kiritgan holda psixologik zarar yetkazish va azoblashdir. Ya'ni zo'ravonlik – bu inson ustidan chegaralanmagan hukmronlikka, boshqa odamning xulq-atvori, o'y-fikrlari, tuyg'ulari ustidan to'liq nazoratga erishish vositasidagi harakatdir"¹.

V.I. Shaxov oiladagi zo'ravonlikning barqaror avj olish tendensiyasi va takrorlanish ehtimoli yuqori bo'lgan, bir oila a'zosining boshqasiga nisbatan jabrlanuvchining irodasiga qarshi yoki bunday ta'sirning haqiqiy oqibatlaridan qat'i nazar sodir etgan noqonuniy, ijtimoiy xavfli jismoniy, ruhiy yoki jinsiy ta'sir sifatida ko'rib chiqadi².

A.S. Pashenko oiladagi zo'ravonlik deganda, oila a'zolariga nisbatan qo'llangan, ularni o'zlari uchun nomaqbul xatti-harakatlar qilishga majburlash uchun tahdid yoki jazolash sifatida og'riq yetkazish, norozilik, jismoniy cheklov (cheklash)ni keltirib chiqaruvchi jismoniy yoki ruhiy kuch ishlatib, ularning irodasiga qarshi qo'llanilgan noqonuniy xatti-harakatni nazarda tutadi³.

Har qanday zo'ravonlikning mohiyati – jabrlanuvchini, iloji boricha, kamsitish istagidir, chunki faqat shu yo'l bilan zo'ravonlik qilgan kishi o'zini birmuncha vaqt "ustun" his qilishi mumkin. Zo'ravonlik (xususan,

¹ *Агапов Е.П. Семейноеведение. – Москва: Издательско-торговая корпорация "Дашков и Ко", 2012. – 400 с.*

² *Шахов В.И. Насилие в семье: уголовно-правовое и криминологическое значение. // Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – Казань, 2003. – 36 с.*

³ *Пашенко А.С. Понятие домашнего насилия // Теория и практика общественного развития. – 2005. – № 1. – С. 46–48.*

oilaviy zo‘ravonlik) faqat umumjahon tendensiyalarning aks etishi hisoblanadi. Hayotning keskinligi, ma’naviyatning yuqori emasligi, stress, ijtimoiy jihatdan o‘rnini topmaganlik, oilaviy qadriyatlarining yo‘qolishi, alkogolizmning kuchayishi – bularning barchasi ko‘p jihatdan zo‘ravonlikning u yoki bu shaklining paydo bo‘lishi uchun qulay zamin yaratish.

Zo‘ravonlik, ko‘pchilik tan olganidek, jismoniy, qo‘pol kuch emas, balki ta’sirning yanada murakkab bo‘lgan psixologik shakli hamdir. Oiladagi zo‘ravonlikning tarqalishi haqidagi sotsiologik ma’lumotlar, aslida, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi va aniq baholanmaydi, chunki bu muammo kamdan-kam hollarda oiladan tashqariga olib chiqiladi. Bundan tashqari, oiladagi zo‘ravonlik ijtimoiy noqobil oilalardagina uchraydi, degan fikr butkul noto‘g‘ridir. Chunki bu muammo aholining barcha ijtimoiy qatlamlari uchun xos bo‘lib, ijtimoiy noqobil oilalardagi zo‘ravonlik holati ommaga ko‘proq oshkor bo‘ladi xolos.

Zo‘ravonlikning bir necha shakllari ajratiladi, jumladan:

1. Jismoniy zo‘ravonlik – turli darajadagi og‘irlikda qasddan jismoniy zarar yetkazish; urish, ovqat va uyquni cheklash, turli zararli moddalarni iste’mol qilishga majburlash va h.k.

2. Jinsiy zo‘ravonlik – inson tanasini qasddan jinsiy obyekt sifatida manipulyatsiya qilish; fohishabozlikka, pornobiznesga jalb qilish va h.k.

3. Psixologik (xulq-atvor, intellektual, emotsional va boshqa) zo‘ravonlik – shaxs (bola yoki kattalar)ni obyekt sifatida qasddan manipulyatsiya qilish, uning erkinligi, qadr-qimmatini va huquqlarini psixik rivojlanishdagi buzilishlarga olib keladigan tarzda e’tiborsiz qoldirish.

4. iqtisodiy zo‘ravonlik – bu oilaning moliyaviy va boshqa resurslarini nazorat qilish, jabrlanuvchiga “boqish” uchun pul ajratish, tovlamachilikka majburlash, ta’lim va/yoki ish bilan ta’minlanishini taqiqlash, keskin vaziyatni yaratish uchun oilaviy mablag‘larni qasddan sovrish.

Shu o‘rinda oilaviy zo‘ravonlikning yuzaga kelishi va namoyon bo‘lishidagi asosiy omillarga to‘xtalib o‘tamiz:

– madaniy omil. Bilamizki, ko‘plab o‘zbek oilalarida erkak – oila boshi, asosiy boquvchi sifatida ulug‘lanadi. Bunday patriarxal tipdagi oilalarda ko‘pincha ayollar va bolalarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik oddiy hol sifatida qabul qilinadi;

– ijtimoiy omil – oila jamiyatning quyi qatlamiga mansubligi, alkogol yoki psixotrop moddalarga tobeligini, oila a’zolaridan birining kriminal guruhlariga kirib qolganligi;

Zo‘ravonlik, ko‘pchilik tan olganidek, jismoniy, qo‘pol kuch emas, balki ta’sirning yanada murakkab bo‘lgan psixologik shakli hamdir. Oiladagi zo‘ravonlikning tarqalishi haqidagi sotsiologik ma’lumotlar, aslida, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi va aniq baholanmaydi, chunki bu muammo kamdan-kam hollarda oiladan tashqariga olib chiqiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, oiladagi zo‘ravonlikning avlodlardan avlodga o‘tishining asosiy sababi – bu gender tarbiyaning to‘g‘ri olib borilmasligi, qizlarga “zaif qatlam” deb qaragancha, o‘g‘il bolalarga ustunlik berilishidir.

– iqtisodiy omil – er-xotinlardan faqat bittasining mehnat faoliyati bilan bandligi, shubhasiz, bu bir partnyorning boshqasiga to‘liq moliyaviy tobeligiga sabab bo‘ladi. Bunda oila boshlig‘i, ya‘ni erkakning mehnat migratsiyasiga chiqib ketishini ham aytib o‘tishimiz mumkin. Chunki ayol uyda bolalar tarbiyasi, uy yumushlari bilan band bo‘lganicha faqat turmush o‘rtog‘i yuboradigan mablag‘ga qaram bo‘lib qoladi;

– huquqiy omil. Garchi qonunchiligimizda oilaviy zo‘ravonlikdan himoyalash to‘g‘risidagi qonunlar mavjud, shuningdek, himoya orderini berish tizimi amaliyotga tatbiq etilgan bo‘lsa-da, aholining katta qismi huquqiy jihatdan yetarlicha savodli bo‘lmaganligi bois, oilaviy zo‘ravonlik muammosiga yechim topishni bilmaydi.

Oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish uchun umumiy ko‘lamda quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

– mavjud stereotiplarni yo‘q qilish uchun aholi gavjum joylarda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari binolarida uchrashuvlar va turli aksiyalar uyushtirish;

– aholining bu boradagi huquqiy savodxonligini oshirish yuzasidan barcha imkoniyatlar (OAV, ijtimoiy tarmoqlar)dan foydalanish;

– ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ommaga tushunarli, sodda tilda tayyorlangan uslubiy materiallarni tarqatish.

Oiladagi zo‘ravonlikning oldini olishda mutaxassislarning vazifasi:

– emosional-psixologik reabilitatsiya ishlarini tashkillashtirish;

– axborot-konsultativ, huquqiy hamda ijtimoiy-tibbiy yordam ko‘rsatish;

– zo‘ravonlik harakatlarining oldni olish va himoyalash maqsadida mutasaddi tashkilot va idoralarning ijtimoiy imkoniyatlaridan foydalanish.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, oiladagi zo‘ravonlikning avlodlardan avlodga o‘tishining asosiy sababi – bu gender tarbiyaning to‘g‘ri olib borilmasligi, qizlarga “zaif qatlam” deb qaragancha, o‘g‘il bolalarga ustunlik berilishidir. Oiladagi zo‘ravonlik, avvalo, ijtimoiy muammolardan biri bo‘larkan, uni shaxsga qarshi jinoyatlarni bostirish va har bir oila a‘zosining fuqaro sifatida hayot xavfsizligi, erkinligi va qadr-qimmatini himoya qilish huquqini ta‘minlashga, shuningdek, ijtimoiy profilaktika qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab muammo sifatida ko‘rib chiqish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Агапов Е.П. Семейведение. – Москва: Изд-во “Дашиков и К”, 2012. – 400 с.*
2. *Пащенко А.С. Понятие домашнего насилия // Теория и практика общественного развития. – 2005. – № 1.*
3. *Шахов В.И. Насилие в семье: уголовно-правовое и криминологическое значение. // Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Казань, 2003. – 36 с.*
4. *Egamberdiyeva N., X.Abdusamatov, Madjidova D. Mehnat migratsiyasiga jo'nalib ketayotgan otalarni uchun tavsiyalar / Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2023. – B. 12.*
5. *Egamberdiyeva N., X.Abdusamatov, D.Madjidova. Oilalar barqarorligiga mehnat migratsiyasining ta'siri. [Matn]: ilmiy-metodik qo'llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2023.*
6. *Маджидова Д.А. Актуальные вопросы защиты многодетных и малообеспеченных семей и детей, нуждающихся в социальной защите. // Актуальные вопросы современной педагогики, 2013.*
7. *Маджидова Д.А., Таджиева С.Х., Ахматий Ф.. Практическое состояние социальной работы с малообеспеченными многодетными семьями в системе самоуправления граждан. Молодой ученый, – 2012, – № 10.*
8. *Маджидова Д.А., Мамараймова З.Ш.. Семья как важный фактор формирования здорового мировоззрения. Молодой ученый, – 2013, – № 5.*